

Surxondaryoda eng mohir ovchilar yig'ini va harbiy sport musobaqalari o'tkazildi



Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug "Termiz" dala-o'quv maydonida "Kalibr" klubining Surxondaryo viloyati miqyosida «Eng mohir ovchi» musobaqasi bo'lib o'tdi. Unda Surxondaryo viloyati hokimi – harbiy-ma'muriy sektor rahbari Ulug'bek Qosimov, Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-mayor Zaynobiddin Iminov, mudofaa vazirligi va kuch tuzilmalari harbiy xizmatchilari hamda klub a'zolari ishtirok etdi.

Tadbir avvalida viloyat rahbari so'zga chiqib, "Kalibr" klubining harbiylar bilan o'zaro hamkorligi, ovchilarning boy hayotiy tajribasidan foydalanish borasida tashkil etilayotgan mazkur harbiy sport musobaqalarining ahamiyati haqida to'xtalib o'tdi.

Shundan so'ng musobaqalarga start berildi va ishtirokchilar avtomat va merganlik miltig'idan turli masofalardagi nishonlarni yo'q qilish bo'yicha o'zaro bellashdi. Yakunda yo'nalishlar bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchilarga diplom va qimmatbaho sovg'alar berildi.

Ma'lumot uchun, "Kalibr" klubi "Vatanparvar" tashkilotining Respublika texnik va amaliy sport turlari markazi qoshida tashkil etilgan bo'lib, Nizomiga muvofiq, ushbu klubga faqatgina O'zbekiston ovchi va baliqchilar sport birlashmasiga a'zo bo'lgan (qurol olib yurishga haqli) fuqarolar qabul qilinadi. Birlashma niqoblanish, joyga moslashish, orientirlanish, qiyin sharoitlarda yashovchanlik borasidagi o'z tajriba va ko'nikmalarini harbiy xizmatchilarga o'rgatish bo'yicha mahorat darslari o'tib borishi belgilangan.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)